

ABDULLA QAHHOR 116 YOSHDA

To'xtayeva Lola Rustam qizi

Buxoro davlat universiteti

Filologiya fakulteti 4-kurs talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning hayoti va yaqinda uning 116 yoshga to'lganligi xususida bayon qilingan. Shu jumladan mohir hikoyanavis ekanligi aks ettirilgan.*

Kalit so'zlar: *Mohir hikoyanavis, tarjimon, ma'rifat, madaniyat, komediya.*

O'zbek xalqi juda ko'p iste'dodlarni ko'rdi: Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Oybek o'zlarining yuksak ijodlari bilan ommani madaniyatli va ma'rifatli qilishga ulkan hissa qo'shdilar.

Bular qatorida xalqimizning yana bir zabardast vakillaridan biri serqirra ijodkor Abdulla Qahhorni eslab o'tmasdan ilojimiz yo'q. Mashhur yozuvchi 1907-yil 17-sentabrda Qo'qon shahrining temirchi oilasida dunyoga keldi. Bolalik davri Qo'qon va uning atrofidagi qishloqlarda o'tdi. U yoshligidan bilimga chanqoq, zukko hamda iste'dodli bo'lib voyaga yetdi. Yozuvchi yoshlik chog'larida juda ko'p joylarda tahsil oldi, zero „Kommuna“ hamda „Namuna“ maktablarida so'ng bilim yurtida o'qib bilimni yanada boyitdi. Abdulla Qahhor hikoya, ocherk, publitsistika, qissa va roman janrlarida samarali ijod qilgan yozuvchidir. Uning ijodi she'riyat bilan boshlangan bo'lsa, adabiy merosining negizi nasriy asarlardan iborat. Uning ilk hikoyalar to'plami „Olam yasharadi“ nomi ostida 1932-yilda chop etiladi. Abdulla Qahhor ijodida „Sinchalak“(1998), „O'tmishdan ertaklar“(1965) hamda „Muhabbat“(1968) qissalari juda muhim ahamiyatga ega, „O'g'ri“, „Dahshat“, „Anor“, „Asror bobo“ kabi o'nlab hikoyalar muallifidir. Komediya sohasida ham samarali ijod qilib „Og'riq tishlar“(1954), „Tobutdan tovush“(1962), „Ayajonlarim“(1966) nomli asarlari ham ko'plab o'quvchilarning qalbidan joy olgan.

Abdulla Qahhorni nafaqat yozuvchi balki tarjimon sifatida ham ko'rishimiz mumkin. Gogol, Pushkin, Tolstoy kabi yozuvchilarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Abdulla Qahhor umrining oxirlarida davolanish uchun Maskvaga ketadi va shu yerda 61 yoshida vafot etadi va Toshkentdagi Chig'atoy qabristonida dafn etiladi. Vafotidan so'ng „Buyuk xizmatlari uchun“ ordeni bilan mukofotlangan. Yozuvchining o'zi ta'kidlaganidek: „Adabiyot ~ ko'ngil ishi, ilhom samarasi. Tuyg'usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o'xshaydi ~ meva tugmaydi. Ko'ngil rozi bo'lgan asargina kitobxonning ko'ngliga yo'l topadi, kitobxonning ko'nglida meva tugadi...”

Darhaqiqat, Abdulla Qahhor mohir hikoyanavis. Buning yaqqol isboti sifatida bugungi kun yoshlari Abdulla Qahhorning 116 yilligini nishonlash ostonasida turibdi. Shu paytga qadar bu nom ostida ko'plab filmlar qo'yildi, bog'-rog'lar barpo etildi, barkamol avlodlar

orasida anjumanlar hali-hanuz o'tkazilmoqda. Cho'lpon aytganidek, „Adabiyot ko'ngil kirlarini yuvadirg'on toza ma'rifat suvidir”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.Qahhor, Anor. Qissa va hikoyalar to'plami, Toshkent, G'afur G'ulom, 2012.
2. A. Madvaliyev tahriri ostida, O'zbek tilining izohli lug'ati, Toshkent, 1981.
3. S.Sodiqov. So'z san'ati jozibasi. Toshkent. „O'zbekiston” .1996.
4. U. Normatov. Abdulla Qahhorni anglash mashaqqati. Toshkent. „Universitet” 1999.
5. R. Qo'chqorov. Men bilan munozara qilsangiz. Ma'naviyat nashr. 1999
6. Saviya.uz
7. Arboblار.uz
8. Ziyo.uz